

TANQIDIY O‘QISHNI RIVOJLANTIRISH MAKTAB O‘QUVCHILARI UCHUN KOGNITIV ZARURIYAT

Shavkatova N.E

Buxoro davlat pedagogika instituti 2-kurs talabasi

Email: Niginashavkatova65.@gmail

Obidova Sh.B

Buxoro davlat pedagogika instituti doktoranti, o‘qituvchisi

Email: obidovashakhodat@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktab o‘quvchilarining tanqidiy o‘qish ko‘nikmasini shakllantirish nazariy va amaliy tahlil ma’lumotlari berilgan bo‘lib, hozirgi kunda bozor iqtisodiyotida yetuk inson resurslarini yetishtirishda kognitiv omillarni ko‘rib chiqish zaruriyati ta’kidlangan.

Kalit so‘zlar: Ta’lim tizimi, dunyoqarash, mantiqiy fikrlash, tanqidiy fikrlash, kognitiv qobiliyat, o‘quvchilar, jarayon.

Abstract: This article provides information on the theoretical and practical analysis of the formation of critical reading skills of schoolchildren, and the need to consider cognitive factors in the cultivation of mature human resources in the market of economy is emphasized

Key words: Educational system, worldview, logical thinking, critical thinking, cognitive ability, students, process.

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasining ta’lim tizimi Jahon mamlakatlari ta’lim standardlaridan andoza olgan holatda tubdan o‘zgarib bormoqda. O‘zgacha uslubdagi ta’lim tizimi o‘quvchi va talaba yoshlarni faqatgina yuqori saviyadagi bilim

bilan ta'minlash emas, balki ularning dunyoqarashini va fikrlash qobiliyatini rivojlantirishni o'z ichida qamrab oladi. Fikrlashning mantiqiy va tanqidiy turlari ta'lim oluvchilar uchun faqatgina akademik yutuqlarga erishish yo'lida poydevor bo'libgina qolmay, kundalik hayotning asosiy ko'nikmalaridir. Aniq va oqilona fikr yuritish, g'oyalar o'rtasidagi mantiqiy aloqani tushunish ya'ni mantiqiy fikrlash va mustaqil hamda refleksli fikr yuritish imkonini beradigan tanqidiy fikrlash kabi yuqori kognitiv qobiliyatlarni kichik yoshdagi maktab o'quvchilariga o'rgatish yuqori salohiyatli kadrlarni tayyorlash sari qo'yilgan ilk qadamdir.

Hozirgi kunda “kognitiv faoliyat” tushunchasi psixologiya va pedagogika fanlarida keng qo'llanilayotgan tushunchalardan biri bo'lib, u turli yo'llar bilan izohlanadi. T.I. Shamova uni aqliy faoliyatning bir turi yoki sifati deb hisoblasa, E.I. Shcherbakov bolaning bilimga bo'lgan tabiiy istagi sifatida izohlaydi. Kognitiv faoliyat o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, bolalar bilan ishlashda T.Kondratenko, V.Kotirlo va S.Ladivir bolalardagi kognitiv faoliyatning uchta darajasini aniqlaydi:

YUQORI - bola juda faol, muloqot va javob berishda tashabbuskor, shuningdek qiziquvchan, doimo diqqatli, maslahatlarga amal qiladi va topshiriqni to'liq hamda to'g'ri bajaradi, kattalar va tengdoshlar orasida fikrini aniq bayon eta oladi, tengdoshlari bilan oson chiqishib keta oladi.

O'RTA – bola faqat o'qituvchining iltimosiga binoan javob beradi, tushuntirishlarni tinglaydi, ammo o'zi yordam so'ramaydi. Ma'lum bir faoliyatni bajarish jarayonida takroriy ko'rsatmalarni talab qiladi, boshqalarga nisbatan taqlid qilish koeffisienti yuqori bo'lib, o'z vazifalarini rag'batlantirish orqali bajaradi. Muammolarga yechim topishga harakat qiladi, ammo muvaffaqiyatsizlikka uchrasa osongina yengiladi.

KAM – bola passiv, kattalarning yordami bilangina ishlashni boshlashi mumkin va maxsus yordamsiz faoliyatni boshlamaydi. Namuna talab qiladi, taklifnoma bo'yicha tadbirlarga qo'shiladi lekin munosabatlarni qanday saqlashni bilmaydi.

Bolalarda kognitiv faoliyatni rivojlantirishning ko'plab vositalari mavjud bo'lib, V.I.Loginova rasm chizishni kognitiv faoliyatni rivojlantiradigan eng muhim vosita

deb aytadi. Innovatsion ta'lim va texnologiyalar ta'lim oluvchilarning fikrlash qobiliyatini kengaytirishda va dunyoqarashini yaxshilashda muhim rol o'ynaydi. Hozirgi vaqtda o'qituvchi o'quvchilar bilan mashg'ulotlarni tashkil etish va ularning mustaqil faoliyat jarayonlarini tashkil etishda foydalanish mumkin bo'lgan ko'pgina innovatsion texnologiyalar mavjud. Bu texnologiyalarning asosiy maqsadi o'quvchilarda tanqidiy va mantiqiy fikrlash jarayonini rivojlantirishdir. Asosiy umumiy ta'limning ustuvor yo'nalishi-o'rganishga, o'z-o'zini tarbiyalashga va olgan bilimlarini amaliyotga qo'llay oladigan o'quvchilarni shakllantirishga qaratilgan bo'lib, o'quvchi fikrlash qobiliyatining muhim tarkibiy qismlaridan biri bu mantiqiy savodxonlik va tanqidiy o'qish ya'ni har qanday intellektual faoliyatga zarur bo'lgan ko'nikma va bilimdir. Mantiqiy fikrlash har qanday fikrlashni, shu jumladan, matematikani ham o'z ichiga oladi. Bolalar mavhum emas, balki majoziy fikrlash qobiliyatiga ega. Bolada fikrlashni shakllantirish uchun besh yoshdan boshlab hamma narsani tasavvur qilishiga ko'mak berilishi kerak. Vizual vakillik jarayonida o'quvchi solishtirish va tahlil qilishni o'rganadi. Natijada, bu og'zaki-mantiqiy fikrlashning faol rivojlanishiga olib keladi. Maktabdagi o'quvchilarda mantiqiy fikrlashni rivojlantirishning eng yaxshi yo'li bu o'yin. Mavzuga doir bo'lgan o'yinlar o'quvchilarni obyektlarni tizimlashtirish, tahlil qilish va umumlashtirishga o'rgatadi. Miyaning kognitiv funksiyasi sifatida fikrlashning rivojlanishi katta maktab yoshigacha paydo bo'ladi. Bu yoshda bolalar sabab-oqibat munosabatlarini ko'rishni va mantiqiy fikrlashni boshlaydi. Aynan shu davrda tanqidiy fikrlash jarayoni bilan tanishish samarali bo'lib hisoblanadi. Tanqidiy fikrlaydigan bola mantiqan o'ylab va suhbatdoshining fikriga tayanib, ma'lum bir vaziyat haqida o'zining munosabatini bildiradi. Shuningdek, bizga Suqroti hakimdan tanqidiy fikrlash meros qolgan. U o'z mulohazalarida nima noto'g'ri yoki to'g'ri ekanligini ko'rsatish maqsadida chuqur mulohaza qilish texnikalarini aytib o'tgan.

Shu o'rinda aytish mumkinki, maktab o'quvchilarining tanqidish o'qishi bu orqali tanqidiy fikrlashi kognitiv zaruriyat bo'lib, kelajakda raqobatlashadigan kadr bo'lib

yetishishiga, yangi g‘oyalar o‘ylab amalda qo‘llay olishiga tayanch bo‘ladi. Zero, pirovard maqsad yetuk kadrlar yetishtirish va vatan ravnaqini jadallashtirishdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Kasbiy ta’lim: lug‘at / Komp. S.M. Vishnyakova. - Moskva: NOVБ, 1999. - 535 p.
2. Korotaeva, E. Kognitiv faoliyat darajalari / E. Korotaeva // Xalq ta’limi. - 1995. - No 10. - S. 156-160.
3. Mojar, E.N. Maktab o‘quvchilarining o‘quv va kognitiv faoliyati talabalar va talabalarni tarbiyalash sifatida (Tug‘ilgan kunning 85 yilligiga): Respublika materiallari. ilmiy amaliy konf. (Gomel, 2005 yil 23-24 iyun). 14:00 da I qism / Tahrir: F.V.Kadol, V.P.Gorlenko va boshqalar; vazirlik arr. RB, GSU im. F.Skarina. - Gomel: GSU im. F.Skarina, 2005. - P.165-168.
4. Shovqiyeva D.B, Djunayev F.A Ta’lim jarayonida o‘quvchi-yoshlarda tanqidiy fikrlashni shakllantirish omillari // Science and Education. 2020. №4. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/ta-lim-jarayonida-oquvchi-yoshlarda-tanqidiy-fikrlashni-shakllantirish-omillari> (дата обращения: 14.01.2023).

